

DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI NARX SIYOSATINI MEXANIZMLARI XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Mavlonov Ozod Ulug‘bekovich

PhD, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Mustaqil tadqiqotchi, TXU

Ozodmavlonov5@gmail.com

ORCID:0009-0009-7463-3795

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20503701>

Abstrakt. Ushbu maqolada davlat ishtirokidagi korxonalarda narx siyosati mexanizmlarini takomillashtirish masalalari elektr energetika sohasi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda global elektr energiyasi iste‘molining o‘sishi, tariflarni bozor tamoyillariga moslashtirish zarurati va davlat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash muammolari yoritiladi. Xorijiy davlatlar, jumladan Janubiy Koreya, Hindiston, Xitoy, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Avstraliya tajribasi asosida differensial tarif, pog‘onali narx, vaqtga bog‘liq tarif va abonent to‘lovi mexanizmlari o‘rganiladi. Tahlillar narx siyosati nafaqat xarajatlarni qoplash, balki energiya tejamkorligini rag‘batlantirish va ijtimoiy himoyani ta‘minlash vositasi ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: davlat ishtirokidagi korxonalar, narx siyosati, tarif mexanizmi, elektr energetika, differensial tarif, pog‘onali tarif, ijtimoiy kompensatsiya, moliyaviy barqarorlik.

Kirish. Xalqaro energetika aganetligining hisobotiga ko‘ra 2025-2027 yillardagi prognoz davrida global elektr energiyasi iste‘moli so‘nggi yillardagi eng tez sur‘atlarda o‘sishi prognoz qilingan. Global elektr energiyasiga talab 2024-yilda 4,3% ga oshdi va 2027-yilga kelib 4% ga yaqin o‘shida davom etishi prognoz qilinmoqda. Keyingi uch yil ichida global elektr energiyasi iste‘moli misli ko‘rilmagan 3500 TVt/soatga oshishi prognoz qilinmoqda¹. 2027-yilga kelib elektr energiyasiga qo‘shimcha talabning katta qismi rivojlanayotgan iqtisodiyotlardan kelib chiqadi, ular o‘shining 85% ni tashkil qilishi kutilmoqda.

Energeyaga bo‘lgan talabning oshib borishi hamda taklifning unga nisbatan orqada qolishi o‘z navbatida, narxlarning oshirib borishini bildiradi. Shu bilan birga, ushbu tarmoq korxonalarida davlatning ishtirokining mavjudligi narx siyosatini korxonaning o‘zi mustaqil belgilash imkoniyatlari cheklanganligi bilan izohlash mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Iste‘molchilarni yoqilg‘i-energetika resurslari bilan ishonchli tarzda ta‘minlash, aholi xonadonlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalari o‘rnatilishini va energiya tejavchi texnologiyalar keng joriy etilishini rag‘batlantirish, yoqilg‘i-energetika resurslari narxlarining shakllanishini bosqichma-bosqich bozor tamoyillariga o‘tkazishni davom ettirish maqsadida 2024 yil 16 aprelda “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 204-sonli qarori qabul qilingan.

Adabiyotlar sharhi. Davlat korxonalarining narx siyosati - bu davlatga tegishli korxonalar tomonidan mahsulot va xizmatlar narxlarini belgilash, tartibga solish va boshqarish bilan bog‘liq iqtisodiy siyosatdir. Ushbu siyosat nafaqat korxonaning foyda olish maqsadiga, balki ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy xavfsizlik va aholining asosiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta‘minlashga ham qaratiladi. Shu sababli davlat korxonalarida narx shakllanishi xususiy sektordan farqli ravishda faqat bozor mexanizmlariga emas, balki davlatning strategik va ijtimoiy maqsadlariga ham asoslanadi.

Davlat korxonalarida narx siyosatini davlatning maxsus vakolatli organlar tomonidan ishlab chiqiladi. Tariflarni tartibga solishdan ko‘zlagan asosiy maqsadlar monopolistik narx oshishining

¹ <https://iea.blob.core.windows.net/assets/7c671ef6-2947-4e87-beea-af0e1288e1d7/Electricity2025.pdf>

oldini olish, inflyatsiyani nazorat qilish, iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish hamda energetika va infratuzilma xavfsizligini ta'minlashdan iborat².

Ilmiy-akademik nuqtai nazardan, davlat korxonalarining narx siyosati “jamoat manfaatlariga asoslangan narx” va “tartibga solinadigan narx” konsepsiyalariga asoslanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, davlat korxonalari faqat maksimal foyda olishni emas, balki ijtimoiy farovonlikni maksimal darajada ta'minlashni ham ko'zlaydi. Shu sababli ayrim hollarda davlat korxonalari iqtisodiy jihatdan past rentabelli faoliyatni ham amalga oshirishi mumkin.

OECD mamlakatlari tajribasiga ko'ra, energetika sektoridagi davlat korxonalari narx siyosati ko'pincha “xarajatlarni aks ettiruvchi tarif belgilash” tamoyiliga asoslanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, tariflar ishlab chiqarish tannarxi, investitsion xarajatlar, amortizatsiya va ma'lum foyda normasini qoplash asosida shakllantiriladi. Shu bilan birga, davlat ijtimoiy himoya maqsadida ayrim iste'molchilar uchun subsidiyalangan tariflarni qo'llashi mumkin.³

Yevropa davlatlari tajribasida energetika bozorlarini liberallashtirish bilan birga davlat regulatorlari faoliyati kuchaytirilgan. Chexiya Respublikasi energetika sektorida elektr va gaz tariflarini bosqichma-bosqich bozor tamoyillariga o'tkazish jarayonida mustaqil energetika regulatori tashkil etilgan. Ushbu modelda davlat korxonalari tarif siyosati ishlab chiqarish xarajatlari, investitsion dasturlar, energiya xavfsizligi hamda raqobat muhiti asosida shakllantiriladi. Shu bilan birga, tabiiy monopoliyalar uchun tariflar davlat tomonidan tasdiqlanadi⁴.

Rivojlangan davlatlarda energetika sohasidagi davlat korxonalari tarif siyosati ESG va “yashil energetika” strategiyalari bilan ham integratsiyalashmoqda. OECD hisobotlariga ko'ra, davlat energetika kompaniyalari qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirish va “Net Zero” maqsadlariga erishish uchun “yashil tariflar” va klassifikatsiyalangan tarif siyosatini qo'llamoqda. Bu esa ekologik barqarorlik va investitsion samaradorlikni birlashtirish imkonini bermoqda⁵.

Metadoligiya. davlat ishtirokidagi korxonalarda narx siyosatini takomillashtirish masalasi nazariy, qiyosiy va tizimli tahlil usullari asosida o'rganildi. Tadqiqotda Janubiy Koreya, Hindiston, Xitoy, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Avstraliya va AQSh tajribalari solishtirildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishga oid normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Tahlil natijalari asosida differensial tariflar, pog'onali narxlar, vaqtga bog'liq tariflar va ijtimoiy kompensatsiya mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari aniqlab berildi.

Tahlil va natijalar. Qo'shma Shtatlarda, Xitoydan keyin dunyoda ikkinchi eng yirik elektr energiyasi iste'molchisi bo'lgan Qo'shma Shtatlarda, elektr energiyaga talab 2024-yilda qayta tiklandi hamda 2 foizga o'sib, yangi yuqori ko'rsatkichga yetdi. Yevropa Ittifoqida elektr energiyasiga talab so'nggi yillarda mintaqaga ta'sir ko'rsatgan iqtisodiyotning pasayishidan keyin tiklanmoqda, ammo 2027-yildan oldin 2021-yilgi darajaga qaytishi kutilmayapti.

2024-yilda Yevropa Ittifoqidagi energiya talab qiladigan sanoat tarmoqlari uchun elektr energiyasi narxlari 2022-yilda kuzatilgan rekord darajadagi ko'rsatkichlardan ancha past va 2023-yilga nisbatan biroz pastroq edi. Ammo ular baribir o'rtacha hisobda Qo'shma Shtatlardagi

² Foster, V., and T. Yepes. 2005. “Is Cost Recovery a Feasible Objective for Water and Electricity?” Finance, Private Sector, and Infrastructure Department, Latin America and the Caribbean Region, World Bank, Washington, DC

³ https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2018/04/state-owned-enterprises-and-the-low-carbon-transition_85fb8835/06ff826b-en.pdf?utm_source

⁴ https://iea.blob.core.windows.net/assets/f92ef401-e06e-44ac-8cbd-128954e17cce/EnergyPoliciesofIEACountriesCzechRepublic2001.pdf?utm_source

⁵ https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2018/04/state-owned-enterprises-and-the-low-carbon-transition_85fb8835/06ff826b-en.pdf?utm_source

narxlardan ikki baravar va Xitoydagiga nisbatan 50 foiz yuqori bo'ldi. Yevropa Ittifoqi, Hindiston, Buyuk Britaniya va Qo'shma Shtatlarda ulgurji elektr energiyasi narxlari 2024-yilda o'tgan yilga nisbatan o'rtacha 20 foizga pasaydi. Bu global energiya tovarlari narxlarining pasayishi bilan keng mos keladi.

Yuqori energiya narxlari ba'zi Yevropa sanoatlari uchun tarkibiy muammoga aylanganini hisobga olgan holda, Yevropa Komissiyasi va mintaqadagi ko'plab mamlakatlar davlat yordamini, asosan Yevropa Ittifoqi Emissiya Savdo Tizimi kompensatsiya mexanizmi orqali ko'rib chiqishni davom ettirdilar. 2024-yil iyul oyida Germaniyaning energiya talab qiladigan sanoati duch kelgan qiyinchiliklarni hisobga olgan holda, Yevropa Komissiyasi mamlakat uchun ETS kompensatsiya mexanizmiga o'zgartirishlarni, ya'ni 75 foiz maksimal yordam intensivligi koeffitsientini olib tashlashni ma'qulladi. Ispaniyada energiya sarflaydigan kompaniyalar 2024-yilda maksimal yordamning 45 foizini olishi kutilmoqda. Italiyada dastlabki mexanizm yiliga 140 million yevro miqdorida doimiy budjetga kiritilgan edi, bu esa 2024-yilda maksimal yordamning 25 foizini kompensatsiya qilishga olib keldi, ammo bu 2025-yilda 50 foizdan oshishi kutilmoqda⁶.

2-jadval

Xorijiy davlatlarning elektr energiyasi bo'yicha olib borayotgan narx siyosati⁷

| Davlat | Differensial narx modeli | Qisqacha izoh |
|------------------------|---|--|
| Hindiston | Time-of-Day, ya'ni kun vaqti bo'yicha tarif | Tijorat va sanoat iste'molchilari uchun ToD tariflari belgilanishi rejalashtirilgan. ⁸ |
| Xitoy | Pog'onali va vaqtga bog'liq tarif | Xitoy siyosatida uy xo'jaliklari uchun pog'onali tariflar hamda vaqt bo'yicha elektr narxlarini takomillashtirish ko'zda tutilgan ⁹ . |
| Buyuk Britaniya | Economy 7 / off-peak tarif | Economy 7 tarifida kechasi odatda 7 soat davomida elektr energiyasi arzonroq bo'ladi ¹⁰ . |
| Yaponiya | Mavsumiy va vaqt bo'yicha tarif | TEPCO tariflarida “morning”, “afternoon”, “evening”, “night”, shuningdek yozgi va boshqa mavsumlar bo'yicha narx farqlari mavjud. ¹¹ |
| Avstraliya | Peak, off-peak, shoulder tariflari | Time-of-use tarifida elektr narxi kun vaqtiga qarab o'zgaradi: peak vaqtda yuqori, boshqa vaqtda pastroq bo'ladi ¹² . |

Hindiston Electricity (Rights of Consumers) Amendment Rules, 2023 hujjati asosida 2026-yil uchun differensial tarif — Time of Day Tariff (ToD) jadvali berildi. Bu hujjatda aniq rupiy/kVt-soat narxlar emas, balki tarifni vaqt bo'yicha farqlash tartibi berilgan. Actual tarif miqdorini har bir shtatning elektr energiyasi regulyatori belgilaydi. Sanoat va tijorat iste'molchilari, maksimal talab 10 kVt dan yuqori bo'lsa Oddiy tarifdan kamida 1,20 baravar yuqori tariff qo'llaniladi. Boshqa iste'molchilar, jumladan maishiy iste'molchilar, qishloq xo'jaligidan tashqari vaqtlarda Oddiy tarifdan kamida 1,10 baravar yuqori qo'llanilishi belgilangan. Shuning bilan birga, Barcha tegishli

⁶https://iea.blob.core.windows.net/assets/7c671ef6-2947-4e87-beea-af0e1288e1d7/Electricity2025.pdf?utm_source

⁷ O'rganilgan adabiyotlarga asosan muallif ishlanmasi

⁸ https://powermin.gov.in/sites/default/files/Seeking_comments_on_Draft_Electricity_Rights_of_Consumers_Amendment_Rules_2026.pdf

⁹ https://en.ndrc.gov.cn/policies/202110/t20211027_1301020.html?utm_source

¹⁰ https://www.ofgem.gov.uk/information-consumers/energy-advice-households/economy-7-consumer-guide?utm_source

¹¹ https://www.tepco.co.jp/en/ep/about/newsroom/press/archives/2024/pdf/240930e0103.pdf?utm_source

¹² https://www.energy.gov.au/solar/financial-benefits-solar/electricity-pricing-plans-and-tariffs?utm_source

iste'molchilar uchun quyosh vaqtida Oddiy tarifdan kamida 20 foiz arzon ta'rif qo'llanilishi belgilangan. Buning uchun, aqlli hisoblagichlar o'rnatilishi maqsadga muvofiqligi ta'kidlab o'tilgan.

Elektr energiyasi narxi Xitoyning uglerod emissiyalarini kamaytirish va 2030-yilgacha karbon cho'qqisiga erishish strategiyasining muhim iqtisodiy vositasi sifatida ko'rilgan. Shu orqali Xitoy elektr energiyasi narxlaridan nafaqat daromad yig'ish vositasi, balki energiya tejamkorligi, qayta tiklanuvchi energiyani rag'batlantirish va karbon emissiyalarini kamaytirish instrumenti sifatida foydalanishni maqsad qilgan.

Bunda, holi qancha ko'p elektr ishlatsa, iste'mol hajmiga qarab yuqoriroq tarifga o'tish hamda Vaqtga bog'liq tarif ishlab chiqish ya'ni, Tig'iz soatlar uchun narx yuqoriroq bo'lishi, oddiy vaqt uchun standart ta'riflarni belgilash hamda past yuklama vaqtlari uchun elektr narxi arzonroq bo'lishi rejalashtirilgan.

California Public Utilities Commission tomonidan gubernator va qonunchilik organiga taqdim etiladigan yillik hisobotdir. Kaliforniya qonunchiligiga ko'ra, CPUC har yili kommunal xizmatlar xarajatlari va tarif oshishini cheklash bo'yicha tavsiyalar berishi kerak; yirik elektr va gaz kompaniyalari esa xarajatlarni kamaytirish bo'yicha o'z takliflarini taqdim etadi. Kaliforniyada elektr va gaz narxlari oshib bormoqda. Buning sabablari - tarmoq infratuzilmasi, xavfsizlik, yashil energetika, subsidiyalar, ijtimoiy dasturlar, quyosh paneli kompensatsiyalari va gazdan elektrga o'tish xarajatlari. Shu sababli hukumat va reguliyator narx oshishini kamaytirish uchun zarur chora tadbirlarni amalga oshirishi lozim bo'lib qolmoqda¹³. Shuningdek, SDG&E 2025-yil 1-oktabrdan quyidagi pog'onali fixed charge'larni joriy qilganini ta'kidlab o'tgan, kam daromadli iste'molchilar dasturi bo'yicha 6,00 dollar/oy, oilaviy yordam yoki arzon uy-joy guruhi uchun 12,08 dollar/oy hamda Boshqa barcha iste'molchilar 24,15 dollar/oy miqdori bo'lishini taklif qilgan. Shuningdek, TOU - Time-of-Use tarifi ham muhim o'rin tutadi. SDG&E va CPUC qaroriga ko'ra, 2026-yil 1-apreldan 10:00 dan 14:00 gacha bo'lgan vaqt "super off-peak" sifatida yil davomida kengaytiriladi. Bu vaqt odatda quyosh energiyasi ko'proq ishlab chiqariladigan vaqtdir, shuning uchun iste'molchilarni aynan shu paytda elektr ishlatishga undash maqsad qilingan. Ya'ni eng arzon vaqt, 2026-yildan 10:00-14:00 oralig'i yil davomida qo'llanadi, peak vaqt oralig'ida esa eng qimmat vaqt, tizim yuklamasi yuqori bo'lgan vaqtlarda elektr energiya narxlarini qimmatlashtirilishi nazarda tutilgan.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, elektr energiyasi bozorida narx siyosati bugungi kunda nafaqat xarajatlarni qoplash vositasi, balki energiya tejamkorligini rag'batlantirish, iste'mol yuklamasini boshqarish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va davlat ishtirokidagi energetika korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim iqtisodiy instrumenti sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xalqaro tajriba elektr energiyasi narx siyosatida uchta asosiy yo'nalish muhimligini ko'rsatadi. Birinchidan, tariflar real xarajatlarga asoslanishi kerak. Ikkinchidan, tariflar iste'molchini energiyani tejashga va yuklamani maqbul vaqtlarga ko'chirishga undashi kerak. Uchinchidan, ijtimoiy himoya mexanizmlari orqali aholining kam ta'minlangan qatlamlari tarif oshishidan himoyalaniishi zarur. Shu sababdan, davlat ishtirokidagi elektr energiyasi korxonalari uchun narx siyosatini takomillashtirishda differensial tarif modeli, pog'onali iste'mol tarifi, vaqtga bog'liq tarif, doimiy abonent to'lovi, yoqilg'i xarajatlarini moslashtirish mexanizmi va ijtimoiy kompensatsiya instrumentlarini uyg'unlashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

¹³ <https://www.cpuc.ca.gov/-/media/cpuc-website/divisions/energy-division/documents/electric-costs/sb-695-reports/sdgc-2026-sb-695-report-part-ii-response.pdf>

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Foster, V., and T. Yepes. 2005. “Is Cost Recovery a Feasible Objective for Water and Electricity?” Finance, Private Sector, and Infrastructure Department, Latin America and the Caribbean Region, World Bank, Washington, DC
2. https://en.ndrc.gov.cn/policies/202110/t20211027_1301020.html?utm_source
3. <https://home.kepco.co.kr/kepco/indi/foreign/en/html/F/B/ENFBHP00101.html#>
4. <https://iea.blob.core.windows.net/assets/7c671ef6-2947-4e87-beea-af0e1288e1d7/Electricity2025.pdf>
5. https://iea.blob.core.windows.net/assets/7c671ef6-2947-4e87-beea-af0e1288e1d7/Electricity2025.pdf?utm_source
6. https://iea.blob.core.windows.net/assets/f92ef401-e06e-44ac-8cbd-128954e17cce/EnergyPoliciesofIEACountriesCzechRepublic2001.pdf?utm_source
7. https://one.oecd.org/document/ENV/WKP%282021%292/en/pdf?utm_source
8. https://powermin.gov.in/sites/default/files/Seeking_comments_on_Draft_Electricity_Rights_of_Consumers_Amendment_Rules_2026.pdf
9. <https://www.cpuc.ca.gov/-/media/cpuc-website/divisions/energy-division/documents/electric-costs/sb-695-reports/sdge-2026-sb-695-report-part-ii-response.pdf>
10. https://www.energy.gov.au/solar/financial-benefits-solar/electricity-pricing-plans-and-tariffs?utm_source
11. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2018/04/state-owned-enterprises-and-the-low-carbon-transition_85fb8835/06ff826b-en.pdf?utm_source
12. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2018/04/state-owned-enterprises-and-the-low-carbon-transition_85fb8835/06ff826b-en.pdf?utm_source
13. https://www.ofgem.gov.uk/information-consumers/energy-advice-households/economy-7-consumer-guide?utm_source
14. https://www.tepco.co.jp/en/ep/about/newsroom/press/archives/2024/pdf/240930e0103.pdf?utm_source
15. https://www.tepco.co.jp/en/ep/about/newsroom/press/archives/2024/pdf/240930e0103.pdf?utm_source